



## O'ZBEKISTON VA AQSHNING SOG'LIQNI SAQLASH SOHASIDAGI ALOQALAR

<https://zenodo.org/doi/10.5281/zenodo.11611445>

**Xoliqov G'olib Jahongirovich**

Axborot texnologiyalari va menejment universiteti dotsenti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekistonning AQSh bilan hamkorlik aloqlarida asosan, gumanitar sohadagi aloqlarini yoritilgan bo'lib, sog'lioni saqlash bo'yicha qator tashkilotlar tomonidan tibbiy texnik yordam, mutaxassislar almashinuvi va insonparvarlik yordamlari keltirilgan. AQShning xalqaro tashkilotlari USAID, Amerika Kers, Projekt HOPE kabi xalqaro tashkilotlari bilan sog'lioni saqlashning turli sohalarida hamkorlik aloqlari yo'lga qo'yildi. Buning natijasida bu tashkilotlar orqali AQSh O'zbekistonga qator insonparvarlik yordamlari ko'rsatdi va gumanitar aloqlar mustahkamlandi.

**Kalit so'zlar:** AQSh, USAID, Amerika Kers, Amerika HOPE, "Project HOPE", Sog'lom oila, Medical Times International, Chegara bilmas shifokorlar, Maunt Cinay, CDAF, COVID-19, tibbiyot, "Umid loyihasi", "Heart to heart" "International", "Konterpart" "International", "Amerika Kers", "Amerika qizil xochi".

## ОТНОШЕНИЯ УЗБЕКИСТАНА И США В ОБЛАСТИ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ

**Халиков Галиб Джахангирович**

Доцент Университета информационных технологий и менеджмента

**Аннотация:** В данной статье освещены отношения Узбекистана с США, преимущественно в гуманитарной сфере, представлена медико-техническая помощь, обмен специалистами и гуманитарная помощь со стороны ряда организаций здравоохранения. Установлены отношения сотрудничества с международными организациями США, такими как USAID, Amerika Kers, Projekt HOPE, в различных областях здравоохранения. В результате через эти организации США предоставили Узбекистану ряд гуманитарной помощи и укрепили гуманитарные отношения.

**Ключевые слова:** США, USAID, Amerika Kers, Projekt HOPE, здоровая семья, Medical Times International, Врачи без границ, Maunt Cinay, CDAF, COVID-19, медицина, Проект "Umid", «От сердца к сердцу», "Heart to heart" "International", "Konterpart" "International", "Amerika Kers", «Американский Красный Крест».

## RELATIONS OF UZBEKISTAN AND THE USA IN THE FIELD OF HEALTH CARE

**Khalikov Ghalib Jahangirovich**

Associate Professor of the University of Information Technology and Management

**Abstract:** Uzbekistan's relations with the USA are highlighted, mainly in the humanitarian sphere, medical technical assistance, exchange of experts and humanitarian assistance by a number of health organizations are presented in this article. Cooperation relations were



established with international organizations of the USA, such as USAID, American Cares, Project HOPE, in various fields of health care. As a result, the United States provided a number of humanitarian aid to Uzbekistan through these organizations and strengthened humanitarian relations.

**Keywords:** USA, USAID, American Cares, American HOPE, Project HOPE, Healthy Family, Medical Times International, Doctors Without Borders, Mount Sinai, CDAF, COVID-19, medicine, Project Hope, "Heart to heart" "International", "Counterpart" "International", "American Cares", "American Red Cross".

## KIRISH

Hozirgi globallashuv davrida jahon mamlakatlari o‘rtasida integratsiyalashuv hamda turli sohalarda hamkorlik aloqalari tobora rivojlanib bormoqda. Dunyo mamlakatlari xo‘jaligida yetakchi sohalar qatorida tibbiyot va aholi salomatligini muhofaza qilish, sifatli tibbiy xizmatni tashkil etish masalalari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Jahon sog‘lijni saqlash tashkiloti (JSST) va boshqa xalqaro tashkilotlar yuqoridagi masalalar yechimiga qaratilgan qator tadbirlarni amalga oshirmoqda. Mazkur tashkilotlar aholi salomatligini muhofaza qilish, ularning turmush sharoitini yaxshilash va strategik dasturlar ishlab chiqish bo‘yicha muayyan chora-tadbirlar amalga oshirib kelmoqda.

Ayni paytda dunyoning AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Xitoy, Yaponiya, Koreya Respublikasi, Hindiston, Isroil kabi davlatlari ilmiy markaz va tadqiqot institutlarida tibbiyotning turli sohalari bo‘yicha tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Jumladan, davolashning zamonaviy usullarini ishlab chiqish, diagnostika texnologiyalarini takomillashtirish, tibbiy reabilitatsiya, ijtimoiy va yuqumli kasalliklar patologiyasi, ona va bola salomatligini muhofaza qilish, tibbiy ta’limni rivojlantirish, kadrlar tayyorlashning samarali mexanizimini shakllantirish, sanitariya xizmati, farmatsevtika sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-dekabrdagi PF-5590-son “O‘zbekiston Respublikasida sog‘lijni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2021-yil 5-maydagi PF-6221-son “Sog‘lijni saqlash tizimida olib borilayotgan islohotlarni izchil davom ettirish va tibbiyot xodimlarining salohiyatini oshirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish to‘g‘risida”gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, 2021-yil 28-iyuldagagi PQ-5199-son “Sog‘lijni saqlash sohasida ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko‘rsatish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2021-yil 11-noyabrdagi PQ-6-son “Aholiga tibbiy xizmatlar ko‘rsatish sifatini yaxshilash va sog‘lijni saqlash sohasida kadrlar salohiyatini yanada oshirishga oid qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari va soha faoliyatini takomillashtirishga





oid huquqiy-me'yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda xizmat qiladi.

## NATIJALAR VA MUHOKAMA

Jahonning rivojlangan mamlakatlari bilan hamkorlikda O'zbekiston uchun Amerika Qo'shma Shtatlari bilan diplomatik aloqalarning o'rnatilishi muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston AQSh bilan davlatlararo aloqani 1992-yil 19-fevraldan boshlab yo'lga qo'ydi. Shu yilning may oyida bir guruh amerikalik mutaxassislar va shifokorlar Toshkentga tibbiy yordam ko'rsatish uchun keldi. Amerikalik mehmonlar toshkentlik hamkasblarining uylarida istiqomat qildi. Ular orasida terapevtlar, jarrohlar, pediatrlar, oftalmologlar, tibbiy ekologiya mutaxassislari bor edi[1].

O'zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlagan ediki, "Bizning Amerika Qo'shma Shtatlari bilan ikki tomonlama munosabatlarimiz davlatlararo aloqalarning g'oyat muhim yo'naliishlari bo'yicha izchil va sobitqadamlik bilan rivojlanib bormoqda. O'zbekiston rasmiy delegatsiyasining 1996-yil yozida AQShga tashrifi esa aloqalarning yanada mustahkamlanishiga yordam berdi"[2]

Ikki mamlakat o'rtasidagi diplomatik aloqalarda 100 dan ziyod hujjatlar huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda. Bunda, ayniqsa, 2002-yil 12-martda O'zbekiston va AQSh o'rtasida imzolangan Strategik sheriklik va hamkorlik asoslari to'g'risidagi deklaratsiya muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

1992-yil 20-aprelda Toshkentda xalqaro tadqiqotlar va ilmiy almashuvlar bo'yicha Amerika kengashining vakolatxonasi ochildi (IREX-International Research & Exchange Board). Bu xalqaro notijorat tashkilot bo'lib, uning faoliyati innovatsion dasturlarni taraqqiy ettirishga qaratilgan edi. 1992-yil 28-noyabrda AQShning O'zbekistondagi elchisi Genri Li Klark ishtirokida Toshkent shahrida Orol muammolari muhokama qilindi. Muhokama jarayonida Orol dengizining qurishi aholi salomatligiga qanday ta'sir ko'rsatishi bo'yicha qimmatli fikrlar ilgari surildi.

Umuman, AQShning O'zbekiston bilan olib borgan aloqalarida USAID tashkilotining roli katta bo'ldi. USAID 1961-yili tuzilgan bo'lib, rivojlanayotgan mamlakatlarning turli sohalarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha loyihalarni amalga oshirib keldi. Bunda sog'liqni saqlash sohasi markaziy o'rnlardan birida turdi. 1994-yil 15-martda AQSh va O'zbekiston Toshkentda USAID tashkiloti doirasida hamkorlik qilish bo'yicha ikkiyoqlama bitimni imzoladi. Bitimning vazifasi O'zbekistonda USAID doimiy vakolatxonasi uchun asos yaratib, hamkorlik qilish bo'ldi. USAID 100 dan ziyod mamlakatlarga iqtisodiy va insonparvarlik yordamini ko'rsatib kelgan[3].



1995-yil 12-iyulda USAIDning delegatsiyasi O’zbekistoniga tashrif buyurdi. O’zbekistonning Birinchi Prezidenti I.A.Karimov o’z qarorgohida USAID agentligi rahbarining o’rnbosari Tomas Daynni qabul qildi. Uch rashuv chog‘ida Orol dengizi muammolari, iqtisodiyot va moliyaviy sohalar, mamlakatlarning hamkorligi masalalari va O’zbekiston-Amerika aloqalarini bundan keyin ham kengaytirish istiqbollari muhokama qilindi. Shuningdek, 1995-yil 10-martda Nyu-York Fanlar akademiyasi O’zbekistonning bir qator olimlarini e’tirof etib, ularni “Dunyoning yetuk insonlari” xalqaro ma’lumotnomasiga kiritdi. Ular orasida tibbiyot yo’nalishi bo'yicha professor, t.f.d., kardiolog ITI laboratoriysi mudiri S.Z.Kostko, professor nevrolog, Yevroosiyo tibbiyot akademiyasining akademigi, O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademigi, Nyu-York akademiyasining haqiqiy a’zosi Nabi Majidov ham bor edi. Qolaversa, AQSh Jahon bankining O’zbekistonda amalga oshirilgan loyihalarida 1998-yildan e’tiboran qatnashdi.

Toshkent shahrida 2002-yil 28-oktabrdan 1-noyabrga qadar O’zbekiston Respublikasi SSV va AQShning “Heart to Heart International” tashkilotlarining loyihasi doirasida “Akusherlikda shoshilinch holatlar” mavzusida o’quv seminari o’tkazildi[4].

AQSh O’zbekistoniga doimiy ravishda insonparvarlik yordamini yuborib turdi. 2002-yil 20-fevralida AQShning insonparvarlik yordami “Amerika Kers” Xalqaro notijorat xayriya agentligining insonparvarlik yuklari ortilgan maxsus samolyot AQShdan keldi. Unga qiymati 1,5 mln. dollarlik dori-darmonlar va tibbiy jihozlar ortilgan edi. Barcha dori-darmonlar va tibbiy jihozlar, asosan, bolalar va faxriylar shifoxonalariga tarqatildi. Ikki davlat o’rtasida o’rnatilgan havo ko’prigi yordamida hammasi bo’lib 15 mln. dollar qiymatidagi insonparvarlik yordami keltirildi. Tadbir AQShning O’zbekistondagi elchixonasi bilan hamkorlikda o’tkazildi. 2002-yil davomida AQSh hukumatining O’zbekistoniga ko’rsatgan yordami 20 konteynerdan ortiqroq bo’lib, umumiyligi 30 million dollarni tashkil etdi. Amerikaning “Fizishens Heart” (“Oq ko’ngil doktorlar) tashkiloti O’zbekistoniga 8 million dollarlik insonparvarlik yordamini yubordi.

Insonparvarlik yuklarining katta qismi Orolbo’yi hududlariga yuborildi. Ular Xorazm viloyati va Qoraqalpog’iston Respublikasi muolaja muassalari uchun mo’ljallangan edi. Mazkur salmoqli yordam “Heart to heart” (“Yurakdan yurakka”) Xalqaro insonparvarlik tashkiloti, AQSh Davlat departamenti va AQShning O’zbekistondagi Elchixonasi hamkorligida Amerika oilaviy shifokorlar yordamida o’tkazildi. Amerikaning “Umid loyihasi”, “Heart to heart” “International”, “Konterpart” “International”, “Amerika Kers”, “Amerika qizil xochi” nohukumat tashkilotlari qator respublikalar va eng avvalo, Orolbo’yi respublikalari ekologik sharoitlarini yaxshilashda jiddiy yordam ko’rsatdi. AQShning “Yurakdan yurakka”



xayriya tashkilotidan yordami tariqasida O'zbekistonga dori-darmonlar ortilgan insonparvarlik yordami yuborildi[5].

2004-yil 20-aprelda AQSh hukumatining “Project HOPE” doirasida O'zbekistonga 7 million dollardan ortiqroq insonparvarlik yordami yetkazib berildi. Yukning katta qismi sog'liqni saqlash sohasiga yo'naltirilgan edi. Keltirilgan dori-darmonlar va jihozlarning qiymati 4 million dollarni tashkil etdi. Insonparvarlik yordami asosan, Navoiy, Zarafshon, Muruntov shaharlari davolash muassasalariga tarqatilib, 2 mln. dollarlik yuk butun mamlakatdagi tibbiy muassasalarga taqsimlandi. Umuman, shu yillar davomida AQShdan O'zbekistonga 9 marta insonparvarlik yuki keltirildi va tibbiy dori-darmonlar va jihozlar ko'rinishida hammasi bo'lib 40 mln. dollarlik beg'araz yordam ko'rsatildi. Umuman, 2002–2004-yillar davomida “Amerika-Kers” xayriya tashkiloti tomonidan 11 mln. AQSh dollari teng dori-darmonlar va tibbiy buyumlar O'zbekistonga yuborildi[6].

USAID tomonidan 2004-yili “Project HOPE”, “Sog'lom oila” loyihasi doirasida Surxondaryo viloyatidagi tibbiyot muassasalariga birinchi yirik gumanitar yordam taqdim etildi. Ushbu loyiha Qashqadaryo va Tojikistonning Xatlon viloyatini ham qamrab oladi. U ona va bola salomatligini mustahkamlashga qaratilgan oltita strategik yo'naliishni o'z ichiga oldi. Loyiha doirasida davolash muassasalariga gepatitga qarshi vaksina, dori-darmon, dori vositalari, tibbiy asbob-uskunalar va apparatlar yetkazib berildi. Shuningdek, tibbiyot muassasalariga kompyuterlar to'plami ham berildi. Gumanitar yuk tarkibida 2 million dollardan ortiq vaksina va 291 ming dollarlik dori-darmon bor edi. Gumanitar yuklar Surxondaryo viloyat tug'ruqxonasi hamda pilot loyihasiga kiritilgan Muzrabot, Termiz va Jarqo'rg'on tuman markaziy shifoxonalariga topshirildi. Loyiha amalga oshirilgan yili Surxondaryoda “Project HOPE” tomonidan homiylik qilingan obektlarga 2 million 613 ming dollarlik insonparvarlik yordami ko'rsatildi.

2004-yil aprel oyida AQShning O'zbekistondagi elchisi Jon R.Purnel O'zbekistonga qiymati 7 million dollardan ortiq bo'lgan dori-darmon va tibbiy asbob-uskunalarni taqdim etdi. Ushbu insonparvarlik yordamining tashabbuskori “Zarafshon – Nyumont” O'zbekiston-Amerika qo'shma korxonasi bo'lib, 1996-yildan boshlab Amerikaning “Project HOPE” xususiy ko'ngilli tashkiloti bilan hamkorlik qildi. “Project HOPE” O'zbekistonda Sog'liqni saqlash vazirligi bilan tuzilgan shartnomalarga muvofiq, bir qator dasturlarni amalga oshirdi. Ftiziatriya va pulmonologiya instituti bilan birgalikda JSST tomonidan silga qarshi kurash bo'yicha tavsiya etilgan DOTS strategiyasini amalga oshirdi. Navoiy viloyatida “Project HOPE” loyihasi “Bolalar omon qolish” dasturini amalga oshirdi. Uning maqsadi onalik va bolalik sohasidagi xizmatlar sifatini oshirishdan iborat bo'ldi[7].

2002-yilning kuzida O'zbekiston va Tojikistonning janubiy viloyatlarida onalar va bolalar salomatligini mustahkamlash maqsadida “Sog'lom oila” dasturi



ishga tushirildi. Bu boradagi chora-tadbirlar “Project HOPE” boshchiligidagi 6 ta tashkilotdan iborat konsorsium tomonidan amalga oshirildi. “Sog‘lom oila” dasturining umumiy budgeti esa 22,5 million dollarni tashkil etib, USAID tomonidan moliyalashtirildi.

2005-yili AQShning Xalqaro rivojlanish agentligi “Project HOPE” loyihasi tomonidan Qashqadaryoda “Sog‘lom oila” markazi tashkil etildi hamda kerakli asbob-anjomlar, texnik jihozlar bilan ta’minlandi[8].

2007-yilda O’zbekistonga bir qancha muruvvat yordami yuklari keltirildi. Jumladan, “Novartis Pharma” (Shveysariya), “Imres B.V.” va “Maers Land” (Niderlandiya) farmatsevtik kompaniyalari, shuningdek, “YUNFPA”, “YUNISEF” xalqaro tashkilotlari, Koreyaning “UNIDUS” korporatsiyasi “Projekt GE” “North West Medical Teams” (AQSh) kabi tashkilotlar tomonidan amalga oshirilgan muruvvat yordami yuklari alohida e’tiborga loyiqdir[9].

2007-yilda AQShning “Project Hope” xayriya tashkiloti O’zbekiston Respublikasiga insonparvarlik yuklarini bir necha bor taqdim etdi. Shu yili xorijiy mamlakatlardan O’zbekistonga yuborilgan muruvvat yuklarining yillik umumiy qiymatining 61,5 % AQSh hisobiga to’g‘ri keldi. 2008-yil 25-oktabrda ham AQShning yana bir tashkiloti “Fizishens viz heart” qarashli 8 million dollardan ortiq qiymatdagi dori-darmon va tibbiy jihozlar ortilgan insonparvarlik yuki O’zbekistonga keldi[10].

AQShning “Medical Times International” tashkiloti 2005-yildan O’zbekistonda tibbiyat tizimi bilan yaqin hamkorlik qila boshladi.

2009-yil 16-dekabrda O’zbekistonlik sud-tibbiyat ekspertlari AQShning bu sohadagi laboratoriylarini borib ko’rdi. O’zbekistonning 5 nafar laboratoriya xodimlari AQShning ekspert va kriminalistik laboratoriylari faoliyati bilan tanishdi. Ular Kaliforniya, Texas, Jorjiyadagi va Kolumbiya okrugidagi soha mutaxassislari bilan uchrashdi. Toshkent, Urganch va Farg‘ona laboratoriylari sud-tibbiyat ekspertlarining safarini AQSh departamentining “International Visitor Leadership Program” loyihasi doirasida moliyalashtirildi.

Fikrimizcha, AQSh va O’zbekiston hamkorligida sil kasalligiga qarshi kurash tadbirlariga jiddiy e’tibor qaratilgan edi. 2008-yil USAIDning moliyaviy ko’magida O’zbekistonning sil kasalliklari klinikalarining tibbiyat xodimlari o’qitildi. Foydalanilgan ma’lumotlar bazasi qariyb 93000 silga chalinish holatini o’z ichiga olgan edi.

2009-yil sentabrda O’zbekistonda USAIDning navbatdagi dasturi yakunlandi. Toshkentdagи “Poytaxt” biznes markazida USAID va “Projekt Hope” Loyihasining yakuniy anjumanı o’tkazildi. Tahlillar shuni ko’rsatadiki, unda O’zbekistonda silga qarshi kurash bo’yicha besh yillik Dastur faoliyati natijalari taqdim etildi. Tadbirda O’zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi, turli tibbiyat institutlari,



fondlar va O'zbekiston ilmiy markazi vakillari ishtirok etdi. 2004-yildan 2009-yilgacha Dasturlarni o'tkazishga 4 mln.ga yaqin AQSh dollari sarflandi. 150 nafardan ortiq jurnalist va 200 nafarga yaqin mahalla vakili sil haqidagi ma'lumotlar bilan tanishtirildi va o'qitildi. Ularning yordamida 35 ming nafar odam sil alomatlaridan o'z vaqtida tibbiy yordam ko'rsatilishidan voqif etildi.

2010-yil 9-iyunda AQSh hukumati O'zbekistonda bolalar immunitetini oshirish bo'yicha milliy kompaniyani qo'llab quvvatladi. USAID grantlar ajratish yo'li bilan bolalarda kamquvvatlikning oldini olish bo'yicha O'zbekistonda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni qo'llab-quvvatladi. Bunda bolalarning poloiomielitga chidamliligi bo'yicha umummilliy safarbarlik o'tkazish talab etildi.

2013-yil yanvardan O'zbekistonda sil kasalligiga tashxis qo'yishning yangi andozalari joriy etildi. AQShning Sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot departamenti hamda kasallikkarni nazorat qilish va oldini olish markazi talabiga ko'ra, AQShga kelayotgan barcha immigrantlar va qochoqlar sil kasalligi yuzasidan oldindan tekshiruvdan o'tishlari shart. Kasallikkarni nazorat qilish va oldini olish markazining Global migratsiya va karantin bo'limi immigrant va qochoqlarga sil kasalligi tashxisini qo'yuvchi va davolovchi tibbiyot xodimlari uchun texnik yo'riqnomalar ishlab chiqdi.

2014-yil 28-noyabrda AQShning USAID agentligi to'rt yillik muvaffaqiyatli hamkorlik loyihasini yakunladi. Ushbu loyiha O'zbekistondagi silga qarshi xizmatni yaxshilashda AQSh hukumati ko'rsatayotgan yordamning asosiy qismi bo'ldi. USAID va JSST O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining sil kasalligining kasalxonada yuqishini qisqartirishga doir sa'y-harakatlarini qo'llab-quvvatlab, 413943 AQSh dollari miqdoridagi infeksiyani nazorat qiluvchi tashxis qo'yish uskunalarini taqdim etdi. 2015-yil 20-fevralda O'zbekiston hukumati va USAID 7,5 mln. dollardan ortiq qiymatli sil kasalligiga qarshi kurashish bo'yicha yangi besh yillik qo'shma dasturni ishga tushirdi. USAID dasturi aholining nochor qatlamlarida sil kasalligini tashxis qilish va undan davolanishlariga kengroq imkoniyat yaratish, O'zbekistonning Xorazm, Buxoro, Navoiy va Qashqadaryo viloyatlarida laboratoriya tashxisi qo'yish va bemorni davolashga yo'naltirilgan yondashuv sifatini ta'minlashni maqsad qilib qo'ydi. Dasturni "Project HOPE" tashkilotining filiali USAIDning moliyaviy ko'magida, Sog'liqni saqlash vazirligi bilan yaqin hamkorlikda joriy etdi.

2015-yil 30-noyabrda USAID dasturi sil kasalligiga qarshi kurashish bo'yicha "Project HOPE" o'zbek loyihasi bilan hamkorlikda 7,5 mln. nafar aholiga ega to'rtta viloyatda ommaviy tadbirlar o'tkazdi va bu ishga 4000 nafar kishini jalb etdi. 2012-yildan buyon 55 yoshdan oshgan tekshirilayotgan kishilar sonini ikki baravar oshirishga erishgan O'zbekiston hukumati endilikda erta bosqichlarda bepul





ravishda sil kasali tashxisi qo'yilishini va sil kasaliga chalinganligi gumon qilingan kishilarning davolanishini ta'minlash bo'yicha tadbirlarni olib bordi.

2015-yil 10-dekabrdan Toshkentda AQShning O'zbekistonidagi elchixonasi ko'magida va USAIDning sil kasalligini nazorat qilish hamkorlik loyihasining moliyaviy ko'magida "O'zbekiston Respublikasi sil kasalligiga qarshi dasturining yutuq va vazifalari" mavzusidagi konferensiya bo'lib o'tdi. Konferensiyada butun O'zbekistonidagi 90 nafardan ortiq shifokor-ftiziatrlari, laboratoriya mutaxassislari va tibbiy o'quv yurtlarining o'qituvchilari ishtirok etdi. Qo'shma majlislarni JSST Yevropa byurosi, Yevropa supra-milliy referens-laboratoriyasi, "Chegara bilmas shifokorlar" tashkiloti va "Management Science for Health" xalqaro ekspertlari o'tkazdi. 2016-yil 22-sentabrda esa USAIDning Sil kasalligiga qarshi kurashish dasturi doirasida sil kasalligi bo'yicha o'zbekistonlik olti nafar mutaxassisiga, shu jumladan, Xorazm, Buxoro, Navoiy va Qashqadaryo viloyatlaridagi sil kasalligi davolash muassasalari rahbarlariga Nyu-Jersi shtatidagi (AQSh) Ratgers universiteti huzuridagi xalqaro sil kasalligi institutida sil kasaligining oldini olish, tashxis qo'yish va davolash ilg'or tajribasi o'rgatildi.

2021-yil fevralda Sirdaryo viloyatining Yangiyer shahrida USAID tomonidan viloyatdagi 12 ta sog'lijni saqlash muassasalariga tibbiy asbob-uskunalar topshirildi. AQSh hukumati va xalqaro hamkorlarning birgalikdagi sa'y-harakatlari tufayli O'zbekistonda sil kasalligi va u bilan bog'liq o'lim ko'rsatkichlarini kamaytirishga erishildi. Tadbir davomida USAIDning sog'lijni saqlash bo'yicha guruh rahbari Anna Meltser shunday dedi "Mazkur tadbir mamlakatda, shu jumladan, Sirdaryo viloyatida ham sog'lijni saqlash xizmatlarini takomillashtirish bo'yicha AQSh va O'zbekiston orasida doimiy hamkorlik o'rnatilganligini namoyish etadi. Birgalikdagi sa'y-harakatlarimiz natijasida O'zbekiston fuqarolarining sog'ligi va farovonligini yaxshilashda muvaffaqiyatga albatta erishamiz". AQShlik ishlab chiqaruvchi "Welch Ally" tomonidan hadya qilingan tibbiy uskunalar USAIDning Markaziy Osiyoda sil kasalligini tugatish bo'yicha loyihasi yordamida yetkazib berildi. Uskunalar Sirdaryo viloyatidagi sil kasalligi ambulatoriyalariga (barcha tuman, shaharlariga) Guliston, Shirin, Yangier shahlaridagi silga qarshi dispanserlar va kasalxonalarga hamda Sirdaryo viloyat sil va o'pka kasalliklari markazlariga topshiriladi.

2021-yilning 24-martida O'zbekiston Sog'lijni saqlash vazirligi va USAID hamkorligida Butunjahon sil kasalligi kuniga bag'ishlangan – "Tibbiyot sohasida xalqaro hamkorlik" mavzusida Xalqaro press-klubning navbatdagi sessiyasi bo'lib o'tdi. "AQSh hukumati silga qarshi kurashda O'zbekiston hukumati bilan doimiy hamkorlik qilib keldi, bu kabi ko'p yillik sheriklikdagi sa'y-harakatlarimiz natijasida biz sil kasalligi ta'sirini yumshatishga va o'zbekistonlik oilalarning farovonligini oshirishga o'z hissamizni qo'shishga muvaffaq bo'lmoqdamiz", – deb ta'kidladi.



Xalqaro press-klubning jonli efirida ishtirok etgan AQShning O'zbekistondagi elchixonasi missiyasi boshlig'iining o'rinnbosari Alan Meltser JSSTning ma'lumotiga ko'ra tuberkulyozga qarshi olib borilgan tadbirlarning natijalari bo'yicha O'zbekiston ftiziatriya xizmati bo'yicha 53 ta mamlakat orasida kuchli uchtalikdan o'rindoldi.

USAIDning "Markaziy Osiyoda silni tugatish bo'yicha" loyihasi doirasida ham O'zbekistonda ko'plab ishlar amalga oshirildi. AQShning "Welch Allyn" ishlab chiqaruvchi kompaniyasi tomonidan ishlab chiqarilgan tibbiy asbob-uskunalar viloyatlardagi sil kasalligi dispanserlari, kasalxona va poliklinikalariga tarqatildi. USAIDning Markaziy Osiyoda sil kasalligini tugatishga qaratilgan loyihasi doirasida Farg'ona, Sirdaryo va Jizzax viloyatlarida natijali ishlar amalga oshirildi. USAID ushbu sohadagi mutaxassislarning tayyorgarligini oshirish, dori vositalari, tibbiy va laboratoriya uskunalari bilan ta'minlash, sil kasalligining oldini olish, aniqlash va davolash jarayonini tezlashtirish maqsadida Sog'liqni saqlash vazirligining sil kasalligiga qarshi kurash bo'yicha milliy dasturi bilan samarali hamkorlik qildi. 2021-yildan USAIDning sil kasalligiga qarshi kurash bo'yicha milliy dasturi va aholining sil kasalligi bo'yicha xabardorligini oshirish va sil bilan bog'liq stigma va mintaqaviy va milliy darajada turli tadbirlar va raqamli dasturlarni amalga oshirishni boshladи.

Tahlillar shuni ko'rsatadi, O'zbekiston AQSh bilan sog'liqni saqlash sohasining eng jiddiy muammolaridan biri hisoblangan saraton kasalligiga qarshi kurash bo'yicha hamkorlikda qator loyihalarni amalga oshirdi. 2009-yil 29-iyunda taniqli Amerikalik onkolog, "Maunt Cinay" Tibbiyat maktabi rahbari, Klinik onkologiyasi amerika jamiyatining a'zosi Eliot Belenkov "Tibbiy jihatlar va sut bezi saratoni muammosini hal etishda jamoatchilik tashkilotlarining roli" Xalqaro forumida qatnashdi. Forum O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, Sut bezi saratoni bilan kurash bo'yicha "Hayot uchun" xotin-qizlar hamjamiyati va Respublika onkologik ilmiy markazi tomonidan tashkil etilgan edi.

O'zbekiston "Virusli gepatitning "B", "S" turlarini barvaqt aniqlash usulini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy qilish, ushbu kasalliklarning asoratlar keltirib chiqarishining oldini olish va davolashda maxsus terapiyani o'tkazish bo'yicha tadbirlari doirasida "CDAF" fondi (AQSh) bilan hamkorlikda loyiha samarali amalga oshirildi. Olib borilgan tadbirlar o'z ijobjiy natijasini ko'rsatdi. 2000-yilda O'zbekistonda 57,8 ming, 2010-yilda 36,4 ming nafar kishi virusli gepatitga chalingan bo'lsa, 2020-yilda bu ko'rsatkich 11,5 mingtani tashkil etgan.

2020-yil kuzida USAID agentligi O'zbekistonga 200 ta sun'iy nafas oldirish apparatini va unda qo'llaniladigan vositalarni bepul topshirdi. USAID ushbu apparatdan foydalanish bo'yicha tibbiyat xodimlarini o'qitish ishlariga ham yordam berdi.





O'zbekistonda koronavirus pandemiyasiga qarshi kurash choralarini qo'llab-quvvatlash uchun tibbiy jihozlarni yuborish masalasi Vashingtondagi elchixonada Oq uy ma'muriyati, AQSh Davlat departamenti va USAID vakillari bilan o'tkazilgan qator maslahatlashuvlarda muhokama qilingan. 2020-yilning 28-iyul kuni AQSh Kasalliklarni nazorat qilish va profilaktikasi markazlari (CDC) O'zbekiston Sog'liqni saqlash vazirligiga qiymati 902 000 dollarga teng tibbiyot vositalari va laboratoriya jihozlarini hadya qildi. Taqdim etilgan vositalar 25 000 ta COVID-19 testlarini o'tkazish imkonini berdi. Ushbu texnologiya odam organizmida virusli DNK mavjudligini kasallik belgilari paydo bo'l shidan avval aniqlaydi, bu esa sog'liqni saqlash muassasalariga bemorni juda erta izolyatsiya qilish imkonini yaratdi. AQShning bu borada O'zbekistonga ko'rsatgan umumiy yordami 6 million dollarдан oshdi.

2020-yil avgustda AQShdan O'zbekistonga umumiy qiymati 2,5 million dollar bo'lgan o'pkani sun'iy nafas oldiruvchi 200 ta apparat yuborildi. Bu apparatlar AQSh prezidenti Donald Tramp ma'muriyati tomonidan e'lon qilingan insonparvarlik yordamining bir qismi sifatida xayriya qilindi. Apparatlar O'zbekiston sog'liqni saqlash muassasalarining texnik infratuzilmasini hisobga olgan holda maxsus buyurtma asosida Amerikaning "Zoll Medical Corporation" kompaniyasi tomonidan ishlab chiqarilgan. Ular statsionar davolanishda, havo tibbiy transportida yoki tez yordam mashinalarida tashish paytida intensiv terapiya uchun ishlatildi. Amerika tomonidan taqdim etilgan ushbu apparatlar Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan viloyatlardagi 62 ta tibbiyot muassasasi o'rtaida taqsimlandi.

2021-yil 19-fevralda USAID va O'zbekistonning Innovatsion sog'liqni saqlash milliy palatasi bilan hamkorlikda tibbiyot xodimlari uchun COVID-19 bilan kasallangan intensiv terapiyaga va o'pkani sun'iy ventilyatsiyasiga muhtoj og'ir bemorlarni davolashni takomillashtirish bo'yicha onlayn-trening o'tkazildi. Trening USAIDning "COVID-19 ga qarshi kurashda Sog'liqni saqlash tizimining barqarorligini mustahkamlash" loyihasi doirasida amalga oshirildi. Treningda "Zoll" sun'iy nafas oldirish uskunasidan foydalanish usullari va COVID-19 bilan kasallangan og'ir bemorlar uchun kislorod terapiyasini o'rganishdi.

Xullas, O'zbekistonning sog'liqni saqlash sohasidagi xorijiy mamlakatlar bilan hamkorligida AQSh yetakchi o'rnlardan birini egalladi. Umuman, O'zbekistonga yuborilgan insoparvarlik yordamining katta qismi AQSh hisobiga to'g'ri keldi. AQShning bu tadbirlarida hukumat bilan birga turli xayriya tashkilotlari, shifokorlar faol ishtirok etishdi.

## FOYDALANLIGAN ADABIYOTLAR

- Евсюкова Т. Мифы советские и американские // Народное слово.— 1992, 1 мая.





2. I.Karimov. O‘zbekiston buyuk kelajak sari.–Toshkent.: O‘zbekiston, 1998.– B.667. (689).
3. Zokirova K.O, To‘xtamatova D.O‘, Mirzaboyeva S.A. O‘zbekistoda sog‘liqni saqlash va hamshiralik ishi ta’limi tizimidagi islohotlar. Hamshiralik ishi faoliyatini olib borish joylari // Hamshiralik ishi asoslari o‘quv qo‘llanmasi.– T, 2001.– B.24.
4. O‘z MA, M-37-fond, 1-ro‘yxat, 8124-ish, 13-varaq.
5. O‘z ITTH MA, 1-fond, 7-ro‘yxat, 3725-ish, 130-varaq.
6. Soatova I. Shoshilinch yordam xizmatida yangi imkoniyatlar // O‘zbekistonda sog‘liqni saqlash, 2012 yil 2 noyabr.
7. Shukurzoda M. AQSh-O‘zbekiston hamkorligi raqamlarda (1992-2016).- Toshkent, 2015. -B.229.
8. G‘afforov Sh. Virusli gepatit, unga qarshi kurashishda mamlakatimiz tibbiyotida erishilayotgan natijalar // Yangi O‘zbekiston, 2022 yil 5 fevral. 26-son, (548) –B.5.
9. Soatova I. Tibbiyot sohasida xalqaro hamkorlik // O‘zbekistonda sog‘liqni saqlash, 2021 yil 26 mart.
10. Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi (RSHTYOIM) Surxondaryo viloyati filiali nevropotolog Olimjon Husanov bilan muallifning shaxsiy muloqotidan (Termiz shahri, 2022 yil 18 fevral).

## BUXORO MUZEYINING “ZARGARLIK TARIXI” KO‘RGAZMASI

<https://zenodo.org/doi/10.5281/zenodo.11611587>

**Sherali Jo‘rayev G‘ulom o‘g‘li**  
Ijtimoiy fanlar kafedrasи o‘qituvchisi  
Buxoro davlat pedagogika instituti  
[Sherali\\_Gulyamovich@mail.ru](mailto:Sherali_Gulyamovich@mail.ru)

*Annotatsiya:* Mazkur maqolada Buxoro davlat muzey-qo‘riqxonasi San’at va etnografiya ilmiy bo‘limida tashkil qilingan “Buxoro zargarlik tarixi” ekspozitsiyasining tashkil topishi va uning eksponatlari haqida umumiy ma’lumot beriladi. Ekspozitsiya 2019-yilda yangidan, to‘liq shaklda reekspozitsiya asosida qayta tashkil qilingan bo‘lib, muzey zahiraxonasida mavjud bo‘lgan noyob artefaktlar ilk marotaba tomoshabinlar e’tiboriga taqdim qilindi. Buxoro vohasining qadimdan rivojlangan hunarmandchilik sohalaridan bo‘lgan zargarlik aholi orasida juda qadrli sanalgan. San’at va etnografiya bo‘limini bezashda Buxoroning qadimgi uy bezaklari namunalaridan foydalanilgan va ekspozitsiyada namoyish etilayotgan eksponatlarni namoyish qilishda yordam beradi. Ekspozitsiyada Buxoro maktabidan tashqari, O‘rta Osiyoning turli millatiga mansub aholining taqinchoqlari haqida ham ma’lumot beriladi. Eksponatlarning umumiy va farqli jihatlari bayonida qiyoslash metodidan foydalaniladi. Muzey eksponatlari - bezak vositalarining tayyorlanish uslublari bayon qilinadi. Taqinchoqlarning turlari, ularni tayyorlash ishida foydalanilgan usullar, ularning jamiyat hayotida tutgan o‘rnii va bezak

